

O‘zbekiston Respublikasi

Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

XORIJIY FILOLOGIYA

til • adabiyot • ta’lim

ilmiy–uslubiy jurnal

Samarqand

4(85)/ 2022

**Ministry of Higher and Secondary Special
Education of the Republic of Uzbekistan**

SAMARKAND STATE INSTITUTE OF FOREIGN LANGUAGES

FOREIGN PHILOLOGY

Language • Literature • Education

Scientific-methodology journal

Samarkand



SHE'RIY TARJIMADA LINGVOPOETIK BIRLIKLAR

*Eshboyeva Tursuntosh Soxatmamatovna,
SamDU 1-kurs doktranti*

Kalit so'zlar: tarjima, kognitiv tilshunoslik, obraz, ohangdosh so'zlar, qofiyani qayta tiklash, g'azal, kompozitsiya, badiiy tarjima, shakl va mazmun, she'riy tarjima.

She'riy tarjima murakkab ijodiy jarayonni o'z ichiga qamrab oladi. Bu murakkablik, ayniqsa, she'riy asarlar tarjimasida yaqqol namoyon bo'lishini kuzatamiz. Shuning uchun ham biz mazkur soha vakillarini haqli ravishda shoir tarjimon deb ataymiz. Bunda ular, rassomdek ijod qiladi va tarjimaning turli, jumladan, yashirin ma'nolarini mufassal bayon qilish yo'llari orqali muallif fikrini kitobxonga aniqroq yetkazishga intiladi.

Ammo, to'rt satr she'rdagi ohang va lirik kechinmani o'quvchi qalbidan joy oladigan darajada tarjima qilish tarjimonidan shoirona ilhom va ulkan mahoratni talab qiladi. She'riy tarjima ham she'r kabi ilhom kelganda, asar tarjimonga kuchli ta'sir ko'rsatganda dunyoga keladi. Ammo, she'r tarjimasi ko'ngil ishi ekanini tan olmasdan ilojimiz yo'q. Chunki tarjimon yuragiga yaqin, ko'ngliga mos keladigan, ruhiyatiga tushadigan g'azalni yoki she'rnigina estetik zavq bilan qayta yaratadi.

Agar tarjimon o'z tarjimasidagi g'azal yoki she'rdan estetik zavq olmasa, u qilgan tarjimaning estetik ta'sirchanligi bo'lmaydi, natijada tarjima quruq va shirasiz bo'lib qoladi. She'riy tarjima lisonida (nutq) ona tili va xorijiy tillarni o'rganishda, terminologiyani ishlab chiqish va takomillashtirishda, lisoniy matnlarni ilmiy sharhlashda muhim ahamiyatga ega; mavjud va xayoliy narsalar (moddiylik va g'oyaviylik)ning o'zaro aloqadorligi muammolarini hal qilish, ijtimoiy ongini va ijtimoiy mavjudot bo'lmish insonning o'zini to'g'ri tushunish uchun nazariy xulosalar chiqarishga imkon beradi. Til va tafakkurning, lisoniy va mantiqiy birlik (kattalik)larning o'zaro aloqasi muammosi she'riy tarjimaning lisoniy kognitiv tahlili

tomonidan baravar, bir vaqtning o'zida o'rganiladi.

Asosiy lingvistik metodlar sifatida tavsifiy (qiyosiy, konfrontativ, kontrastiv, tipologik), tarixiy (qiyosiy-tarixiy, komparativ) va normativ stilistik (me'yoriy uslubiy) metodlarni ko'rsatish mumkin. She'riy tarjimada lisoniy – kognitiv metod ham mavjud.

Kognitiv so'zi inglizcha “**cognize** - bilmoq, anglamoq, tushunmoq” so'zidan olingan bo'lib, bu soha faqat falsafadagi bilish nazariyasi bilan cheklanmay, balki tilni tafakkur bilan bog'lab, lisoniy hodisalar bilan uzviy aloqasini chuqur ilmiy tadqiq etadi. Kognitologiya bilimning lisoniy voqelanishi jarayonini tavsiflashni gumanitar fanlar sohasidagi eng asosiy muammolar qatoriga quyadi. Ushbu muammo zamonamizda rivoj topayotgan ilmiy taqdiqotlarning muhim yo'nalishlarini belgilab bermoqda. Professor SH. Safarovning fikricha, kognitiv tilshunoslikning vazifasi til yordamida bilim olish va saqlash, tilni amalda qo'llash hamda uzatish, umyman, til tizimi va tarkibini inson miyasidagi tafakkur bilan bog'lab, chuqur ilmiy tadqiq etishdir deya ta'kidlaydi. (Kognitologiya. 115-b.

SH Safarov.) (3.65). Shunday ekan insonning kundalik voqea - hodisalarga munosabati tilning kognitiv nazariyasining amalda qo'llanishi bilan uzviy bog'liqdir. Zotan, biz yillar davomida hosil bo'lgan hayot tajribamiz, bilim va ko'nikmalarimiz asosida voqelikdagi u yoki bu tarzda mavjud bo'lgan narsa – predmetlar, voqealar, hodisalar haqida fikrlar olamiz va ana shunga tayangan holda o'zaro so'zlashuv jarayonida nutqimizning yanada ravon bo'lishiga ya'ni, bekamu ko'stligiga erishamiz.



Bizga ma'lumki, bilish faoliyati insonning voqelikni bevosita sezish, his etish bilan boshlanadi. Hozirgi zamon tilshunosligida kognitiv yo'nalish leksik-semantik sathdagi tahlillar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, unga ko'ra til umumiy kognitiv mexanizm bo'lishi bilan birga, kognitiv qurol tarzida axbototning taqdimotini kod yordamida uzatish va o'zgartirish vazifasini bajaruvchi belgilar tizimi hamdir.

She'riy asarlarni nasriy ijoddan ajratib, farqlab turadigan o'ziga xos xususiyatlari tarjima jarayoniga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Har qanday she'riy asarni qo'lga olishingiz bilan dastlab ko'zga tashlanadigan narsa uning zohiriy tomoni bo'lib, hali mazmuni bilan tanishmay turib, nazmni nasrdan farqlash imkoniyatini beradi. Bu zohiriy tomon - she'riy asarlarning ma'lum tartibidagi shakli: o'lchovi, bandlanishi, qofiyasidir. Zohiriy fazilatlar she'riy asarning mazmunini ifoda qilish uslubiga (ifoda siqiligi, obrazli uslubiy vositalarning ko'p ishlatilishi, o'ziga xos sintaksis) ta'sir qiladi.

Nazm uchun xos bo'lgan maxsus xususiyatlarning tarjima jarayonida qay tarzda va qay sifatda qayta ishlatilishi, ularning tarjima asarlarining estetik ta'sir ko'rsatadigan kuchini qayta tiklanishidagi mohiyatni o'rganish tarjima nazariyasi va amaliyoti nuqtay nazaridan ma'lum qiziqish uyg'otadi.

She'riyat boshqa uslub va janrlar ichidagi eng jonli va ta'sirchani bo'lganligi, shuningdek, u qofiya, misra, band kabi qayta tartibga soluvchi unsurlarga ega bo'lganligi tufayli, undagi gaplarda so'z tartibi nasrga qaraganda ko'p va antiqa o'zgarishlarga uchrab turadi. Sintaktik uslubiy vositalar ham nazmda nasrdagidan ko'ra ko'proq ishlatilib, ular she'r ritmini tashkil etishda, uning ifoda kuchini oshirishda, eng muhimi, uning g'oya va mazmunini kitobxonning his-tuyg'ulariga kerakli ta'sirni o'tkazishda ishtirok etadi.

She'riy tarjima asrlar davomida filologlar, shoirlar, she'rshunos olimlar, she'riy tarjima masalalari bilan maxsus shug'ullangan mutaxassislar diqqat markazida bo'lib kelgan. She'riy tarjima nasriy

tarjimadan ko'p jihatdan farq qilsa-da, ular o'rtasida mushtaraklik mavjud. Ular tillararo poetik yoki she'riy kommunikatsiyaga xizmat qiladi.

She'riy matndagi informatsiya nasriy matndagi informatsiyadan tubdan farq qiladi. She'rdagi informatsiya mazmuni turli-tuman, bir-biriga zid va hatto biri ikkinchisini inkor etishi mumkin. She'riy informatsiya o'z ichiga faktual hamda konseptual, ya'ni ma'noga bog'liq informatsiyani oladi. Ular bir-biri bilan chambarchas bog'liq va ayni paytda ular bir-biriga dinamik qarshi bo'ladi. Faktual va mazmuniy informatsiya tashqi real yoki noreal dunyo haqida muayyan fakt, hodisa, voqealar asosida ma'lumot beradi. Badiiy nutq sirasiga kiradigan she'riy matn tarjimasi she'r tuzilishi qonun-qoidalarini hisobga oladi. Bunda nasr tahlilida qo'llanadigan ritm, ohang, sintaktik qurilish, badiiy obraz va boshqa badiiy unsurlar diqqat markazida bo'ladi.

Yuqorida keltirilgan tushunchalar va atamalar she'riy matn tahlilida ham qo'llaniladi, biroq ular she'riyatning qat'iy qonun-qoidalari asosida amalga oshiriladi. Har gal tarjimon she'riy tarjima tajribalarini o'rganish, she'riy tarjimalarining yutuq va kamchiliklarini aniqlash, she'riy tarjima tahlili natijalari asosida ba'zi tavsiyalar ishlab chiqishga harakat qilgan. She'riy tarjimaning eng asosiy vazifasi — yaxshi she'r tarjimada yomon she'rga aylanib qolmasligiga harakat qilish, tarjima mazmunini iloji boricha to'liq saqlab qolish, she'riy matn shakllarining she'r mazmuniga mos ravishda ham vaznini, ham ohangni saqlab qolish hisoblanadi. Tarjimaning yaxshi-yomonligini nafaqat tarjimon, balki o'quvchi ham bir o'qishda sezishi lozim. Tillar she'riy tizimlar, vazn, musiqaviy omillar orasida farq mavjud. Biroq mazkur farqlarni tarjimada qayta yaratish orqali tarjima matni yaratiladi. She'riy tarjimada asliyat va tarjima matni, ikki til she'riy sistemasi qanday bo'lishidan qat'i nazar, har bir she'r o'ziga yarasha noyob asar sanaladi.

She'riy tarjimada asarning hamma unsurlarini to'liq saqlab qolish imkoniyati yo'q, biroq ba'zi tarjimashunos olimlarning fikriga ko'ra she'rdagi obraz, she'riy



hamohanglik saqlanishi lozim. She'riy obraz va hamohanglikning qanchalik saqlanishi tarjimon mahorati bilan belgilanadi. Agar yuqorida zikr etilgan fonetik stilistik vosita va usullar fikrni chiroyli va mazmunli ifoda eta olmasa va bu tarjimada formal vazifanigina bajaradigan bo'lsa, she'r mazmuniga putur yetadi, aksariyat hollarda she'riy tarjima matni asliyat matnidan uzoqlashib qoladi. Qo'llangan ifoda vositalari badiiy taassurotni kuchaytira olmasa, she'r ohangi, ritmi va asosiysi mazmuni o'zgarib qoladi, she'rdan tegishli estetik zavq olish qiyinlashib, mazmun sayozlashadi va ifoda vositalari shunchaki tovushlar yig'indisidan iborat bo'lib qolishi mumkin.

Bunda she'rning vazni, turog'i, qofiyasi, ohangi, hamohanginigina emas, balki she'rning turli kombinatsiyada kelgan turini, xususiyatini, muallifning individual uslubi bilan bir qatorda har bir tildagi she'r xususiyatini hisobga olishga to'g'ri keladi. Bu she'r tarjimonidan chuqur bilim, ikki til an'alarini, milliy xususiyatlarini, lingvomadaniy jihatlarini, she'rdagi asosiy g'oya, obraz, stilistik vosita va usullarning qo'llanish sabablarini, she'riy informatsiyani o'quvchiga ifodali yetkazishda ishtirok etgan til unsurlari har birining vazifasi, she'r yozilgan davr xususiyatlari va shu kabilarni hisobga olish talab etiladi.

Qofiya-misralar oxiridagi qo'shimcha, so'z va so'z qo'shilmalarining o'zaro ohangdosh bo'lib kelishidir. Qofiya she'rning musiqiyligi, ohangdorligi va ta'sirchanligini kuchaytiradi, uning yod olinishini osonlashtiradi. Qofiya mumtoz she'rshunoslikda vazn kabi she'riy ritmni vujudga keltiruvchi asosiy unsur bo'lib, uning bayt so'ngida qo'llanilishi zaruriy talablardan biri bo'lgan. Sharq musulmon adabiyotshunosligida qofiya haqidagi nazariy qarashlar maxsus fan - ilm i qofiyada o'z ifodasini topgan. Mumtoz adabiyotda shoirarning badiiy salohiyati she'rda qo'llangan qofiyalarning g'oyalar mohiyati, timsollar olamini ochib berishdagi ahamiyati, qofiya uchun tanlangan so'zlarning ohangdorligi bilan ham belgilangan. Qofiya san'atlari va turlaridan unumli foydalanish, qofiyaning boshqa she'riy unsurlar - vazn,

badiiy san'atlar bilan munosabatiga e'tibor qaratish mumtoz ijodkor mahoratining muhim qirralaridan biri hisoblangan. Shu sababli o'tmishda shoirlarımız qofiya ilmini maxsus fan sifatida alohida o'rganganlar, shu sohadagi yetuk ustozlardan ta'lim olganlar.

Bizga ma'lumki, qofiya she'riy asarlarda ifodalanishi maqsad qilingan g'oyalarni badiiy so'z yordamida teran va ta'sirchan aks ettirishning o'ziga xos va muhim vositalaridan biridir. Har bir misra yoki bayt tarkibidagi qofiyalarda shoirning g'oyaviy badiiy niyati muayyan ma'noda o'z ifodasini topadi. 50 ta fransuzcha so'zga 9 ta qofiyadosh juftlik tug'ri keladi. 100 tasi takrorlanmaydigan 200 ta so'zdan iborat fransuzcha matnda esa bu lisoniy materialdan 37 ta qofiya yasash mumkin. Qofiya she'rda bir qancha vazifalarni bajaradi:

a) ma'no vazifasi — qofiyadosh so'zlararo (shu bilan birga, misralar orasida) ma'no aloqasini o'rnatadi;

b) ritmik vazifa;

Qofiya she'rning kompozitsiyon tomondan eng muhim bo'lgan nuqtasidan joy oladi, natijada she'rda ritmik vazifa hosil bo'ladi. Bu ikki vazifa har bir shoirning qofiyalash sistemasiga xos bo'lib, o'zaro biri-biri bilan chirmashib ketadi.

Mutaxassislarining kuzatishlariga qaraganda, analitik ingliz tilining qofiyaviy lug'atida 400 ga yaqin barqaror qofiya hosil qiluvchi gruppalar, ya'ni bir xil tugaydigan so'zlar turkimi mavjud. Fransuz tilida 600 ga yaqin shunday gruppa mavjud. Har bir so'z faqat o'z turkumidagi o'zga so'zlar bilan qofiyaga kirishadi, boshqa turkum so'zlari bilan qofiylanmaydi.

Vazn arab tilida o'lchov, meyor ma'nolarini beradi. Har bir she'rda aniq ravishda ro'yobga chiqaruvchi ritm hodisasi vazn deb ataladi. Vazn she'rning asosiy hususiyati. Bu shunchaki nutq o'lchovi emas. Vazn-ritmning asosi, bu she'riy sestemalarni vujudga keltiradigan zamin hisoblanadi. Jaxon she'riy sestemasining (aruz, hijo, sillabo-tonik, aleksandiriya, metrik) hammasi vazn tabiatidan paydo bo'lgan. Vazn hususiyati esa har bir tilning fonetik qurilishidan hosil bo'ladi. Vazn muayyan tildagi ritmik imkoniyatning nazmga



ko'chgan shakli. Bir hil she'riy vazn bir necha xalq adabiyoti uchun mushtarak bo'lishi mumkin. Masalan aruzda bitilgan g'azalni rus tiliga aruz bilan, sillabo-tonik she'rni o'zbek tiliga silabo-tonik vazn bilan berishning iloji yo'q. Shunday qilib, she'rni tarjima qilganda faqat har bir adabiyotda mavjud bo'lgan vazndan foydalanish mumkin.

Masalan, aruzda yaratilgan asarlarni ularning janr tuzilishi va foydalanilgan bahr turiga qarab sillabo-tonik vaznining turli shahobchalari orqali tarjima qilish imkoni bor. Alisher Navoiy "Xamsa" si dostonlari besh turoqli yambda (muzakkar qofiyalar bilan), g'azallari esa shu vaznning 8-10 turoqli tizimida; ruboyi va tuyuqlari besh va to'rt turoqli yamb bilan tarjima qilingan. Bugungi kunda badiiy adabiyotning muhim bir jihatiga aylanib ulgurgan tarjima turlaridan biri bu - she'riy usulda olib borilayotgan tarjima yo'nalishidir. She'riy tarjima bu - so'z san'atining o'ziga xos turi bo'lib, uning predmeti ohangdor so'z yoxud musiqiy so'zdir.

Bunday tarjimalarda faqat musiqiy so'zlar emas balki ohangdorlik yo'li bilan ham tashkil topgan muayyan she'riy asar tarjima qilinadi. She'riy tarjima shunday bir usulki, asar bir tilda qanday bunyod qilingan bo'lsa, ikkinchi tilda ham shunday yaralishi lozim. Bu esa tom manodagi ijodiy mehnat, iste'dod, hamda san'atkorona mahoratni talab qiladi. She'riy tarjimalar asosan turli millatlar ko'prigi vazifasini o'tashidan tashqari, shu tilda so'zlashadigan millatning bilimini estetik saviyasini oshirishda o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Tilshunoslik badiiy adabiyotlar bilan uzviy aloqadordir chunki til vositasi sifatida muayyan axborot tashuvchi oddiy belgilar sistemasigina bo'lib qolmasdan, balki tinglovchiga ta'sir qiluvchi qudratli vosita hamdir. Tilning birinchi funksiyasi an'anaviy va sistem struktur tilshunoslik tilning o'rganish obyekti bo'lsa, ikkinchi funksiyasi lingvopoetikani o'rganish obyekti bo'ladi.

Lingvopoetika "lingvistik poetika" ning qisqargan shakli bo'lib, badiiy asarlarda qo'llangan lisoniy birliklarning fonetik, leksik, morfemik, sintaktik, badiiy-estetik vositalarini, tilning kognitiv funksiyalarini

o'rganadi. Boshqacha qilib aytganda, umuman lingvopoetika badiiy nutqni o'rganuvchi tilshunoslikning bir bo'limidir.

Badiiy nutq badiiy adabiyotning bayon qilish vositasi sanaladi. Badiiy nutq orqali tilimizda fikrimizni bayon qilamiz. Lingvopoetika tilning qaysi satx birliklarida qo'llanilsa, o'sha birliklarga qarab, fonetik-poetika, leksik-poetika, sintaktik-poetika kabi qismlarga bo'linadi. Atoqli o'zbek adabiyotshunosi

O. Sharafiddinov shunday yozadi: "Rangsiz tasviriy san'at, ohangsiz musiqa bo'lmaganidek, tilsiz adabiyot ham bo'lmaydi. Adabiyotni insonshunoslik deyilar. Darhaqiqat, yozuvchi xilma-xil insoniy xarakterlarni tarjima qilib, jamiyat rivojiga yordam beradigan salmoqdi haqiqatlarni kashf qiladi.

Biroq, bularning hammasi adabiyotda til orqali ro' yobga chiqariladi"¹. Ha, badiiy asarning yozilish tili shunday murakkab va alohida o'ringa ega hodisa sifatida qabul qilinadi, tilshunoslikda esa buni o'rganish, tadqiq qilish bilan necha yillar va hattoki asrlar davomida shug'illanganlar. V. Vinogradov o'zining "Badiiy adabiyot tili haqidagi fan va uning vazifalari" nomli maruzalarida adabiy til to'g'risida fikrlarini bayon qilgan va til so'zining ikki xil manosini ta'kidlagan; 1) U yoki bu tilning sistemasini aks ettiruvchi "nutq" yoki "matn" 2) San'at tili, badiiy ifoda vositasining sistemasi ma'nosida.

Taniqli rus filologi A. Budagov matn lingvistikasi bo'yicha yaratilgan tadqiqotlar yig'indisi to'plamining nashri munosabati bilan "Matn lingvistikasi" qay darajada lingvistikadir? deb nomlangan maqolasida lingvistika insonning matn yaratishi, tushunishi yoyinki, kompozitsion yaxlitligini o'rganadi deb e'tiroz bildiradi. Lingvistika haqida shuni takidlash joizki, matn tushunchasi borasida mutaxassislarda aniq fikr yo'q. Muallifning lingvistik konstruksiya tanlashiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, asar mavzusi va umumiy sematikasi muhim.

F. Villonning "Osilganlar balladasi" asaridan parchaga murojaat qilsak:

Biz besh kishi osilganmiz, balki olitimiz.



*Va ko'p lazzatlarni bilgan go'sht,
U uzoq vaqtdan beri yutib yuborilgan
va badbo'y hidga aylangan.*

*Biz suyakka aylandik - biz chang va
chirigan bo'lamiz.*

*Kim tabassum qilsa, o'zi baxtli
bo'lmaydi.*

*Bizni kechirishi uchun Xudoga ibodat
qiling.*

(A. Parin, "Osilganlar balladasi")

Tarjima manbaning tarkibini va leksik birliklarini aks ettiradi, ammo muallif leksik vositalar tanlashda o'zining she'riy individualligini to'liq ko'rsatgan. Og'zaki turkumlar, jumladan: "lazzatlanadi" so'zi bitta so'z ichida to'qnashadi. So'z boyligining uslubiy xilma-xilligi nuqtayi-nazaridan tarjima to'liq tugallangandek ko'rinadi. Bundan tashqari, Edinburg tarjima matnini qisqa "To'g'ralgan" iboralar bilan to'ldirganini ko'rishimiz mumkin. Villon hikoya qiluvchi ovoz huquqini tirik odamlarga emas, balki tiriklar bilan gaplashadigan ruhsiz o'liklarga bergan.

Endi esa o'zbek xalq shoiri Erkin Vohidov tomonidan yozilgan she'rni tahlil qilib ko'rsak:

*Vatan, to tanda jonim bor,
Seningdirman, seningdirman,
Tanim xok o'lsa ham sen yor,
Seningdirman, seningdirman.*

Erkin Vohidov tomonidan mahorat bilan ishlangan bu she'r o'z ichida olam-olam ma'noni qamrab olgan. "seningdirman", "bor", "yor" so'zlari o'zaro she'rning qofiyalarini tashkil qilib turibdi, "Vatan" so'zi esa undalma sifatida qo'llangan.

Endi badiiy tarjima haqida ham ko'rib chiqsak, badiiy tarjima - inson ijodiy faoliyatining murakkab shakli bo'lib, bir tilda yaratilgan badiiy asarni uning shakl va mazmun birligini, ko'rkamligini taminlovchi

barcha komponentlarni saqlagan holda ikkinchi til vositalari asosida qayta yaratish jarayonidir. Badiiy tarjimani ilmiy tavsiflash shundan iboratki, bunda so'zni so'z bilan emas, balki ma'noni ma'no bilan, ohangni ohang bilan, obrazni obraz bilan, yumorni yumor bilan berish muhim ahamiyatga egadir. Badiiy tarjimaning boshqa turdagi tarjimalardan farqi shundaki, so'z, jumla yoki butun bir asarni to'g'ri o'girish kifoya emas. Bunda tarjimon ham san'atkor bo'lishi lozim. Badiiy tarjimaning boshqa turlariga qaraganda she'riy tarjima «ko'proq» san'atdir. Biz esa buni bir so'z bilan, she'riy tarjima badiiy tarjimaning oliy navi desak ham bo'ladi.

Og'zaki tarjimon tarjima davomida, nutqda tez-tez uchraydigan holat kabi bitta so'zni bir necha bor qo'llaydigan bo'lsa, yozma tarjimon ancha-muncha ma'nodosh so'zlarni qo'llab chiqishga majburdir. Axir, quyosh botishining tasviri bitilgan matnda «go'zal» so'zi ketma-ket yetti marotaba o'qilsa sal g'alatiroq bo'lmaydimi?!

Badiiy asarlarda har bir jihatning ishlatilish o'rni mavjud, buni esa to'g'ri qo'llay olish haqiqiy shoirona mahoratdir.

Xulosa shuki, lingvopoetik tahlil asoslarini, ularning nomlanishini bir ko'rinishga keltirish kerak. Bu masala yuzasidan yaratilgan tadqiqotlar tilimizning boyligini ko'rsatish, filologiyaning yaxlitligini ta'minlash bilan bir qatorda, yetuk tilshunos va adabiyotshunos mutaxassislar tayyorlashga ham xizmat qiladi, deb o'ylaymiz. Yuqoridagi fikrlar asosida yaxlit xulosa qilishimiz mumkinki, matn tilshunoslik nuqtayi nazaridan barcha lingvistik xususiyatlarni o'zida mujassam etgan murakkab tuzilmadir va u tilshunoslikning barcha sohalarining asosiy o'rganish obyektlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Anvar Obidjon. She'rlar, doston va ertaklar. - T.: Cho'lpon. 2006. - 118 b.
2. Саломов. F. Таржима назарияси асослари. Т.: «Ўқитувчи». – 1983. – 230 б
3. Salimova. D. She'riy tarjimada poetik mahorat. — Jizzax 2021. – 146 b.
4. O'ralova. Ch, Boymatov. S. "Zamonaviy tilshunoslikda lingvopoetika tadqiqi" Oriental Renaissance: Innovative, educational, naturaland socials ciences VOLUME 1 Journal Impact Factor SJIF 2021: 6. 423. 463-P.



5. www.Ziyonet.com.

Эшбоева Т. Лингвопоэтические единицы в поэтическом переводе. В статье исследуется специфика художественного перевода, в частности поэтического перевода. Теоретические обобщения основаны на переводах газелей Алишера Навои на узбекский и французский языки. Теоретические выводы основаны на сравнительном анализе текстов: в переводе газелей, который является одним из важнейших жанров классической турецкой литературы, переведенный текст ближе к оригиналу. Проанализированы особенности поэтического перевода, сложность методов перевода с периодической сменой и совершенствованием поэтических жанров, а также различия между ними.

Eshboyeva T. Linguopoetic units in poetry translation. This article examines the specifics of literary translation, in particular, poetic translation. Theoretical generalizations are based on the translations of Alisher Navoi's ghazals into Uzbek and French. Theoretical conclusions are based on the comparative analysis of the texts. In the translation of ghazals, which is one of the most important genres of classical Turkish literature, the translated text is closer to the original text. The features of poetic translation, the complexity of translation methods with the periodic change and improvement of poetic genres, and the differences between them were analyzed.